

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI
O'STIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI****Umarov Xusniddin**

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Asatullayeva Dilnura

Gulison davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18660744>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari, interfaol metodlar, kommunikativ texnologiyalar hamda dars jarayonida qo'llaniladigan innovatsion vositalar tahlil qilinadi.

Shuningdek, nutq o'stirish jarayonida o'qituvchining roli, muammolar va ularning yechimlari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, interfaol metodlar, ta'lim islohotlari, nutq o'stirish, to'g'ri talaffuz qoidalari, ta'lim metodlari, multimediya vositalari, lug'at boyligi, integrativ yondashuv.

Abstract. This article analyzes modern pedagogical approaches to the development of oral and written speech in primary school students, interactive methods, communicative technologies, and innovative tools used in the lesson process. It also shows the role of the teacher in the process of speech development, problems and their solutions.

Keywords: Speech culture, interactive methods, educational reforms, speech development, correct pronunciation rules, educational methods, multimedia tools, vocabulary, integrative approach.

Аннотация. В статье анализируются современные педагогические подходы к развитию устной и письменной речи учащихся начальной школы, интерактивные методы, коммуникативные технологии и инновационные средства, используемые в процессе урока. Показана роль учителя в процессе развития речи, проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: Культура речи, интерактивные методы, образовательные реформы, развитие речи, правила правильного произношения, образовательные методы, мультимедийные средства, словарный запас, интегративный подход.

KIRISH. Nutq – insonning fikrini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash jarayonidir.

Boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishining asosiy omili hisoblanadi. Ona tili darslarida nutqni o'stirish o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, ravon fikrlash, muloqot madaniyati, ijodiy tafakkur va mustaqil nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining keng qo'llanilishi nutqni rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda.

METODOLOGIYA. Mazkur maqolani tayyorlashda ilmiy izlanishlar asosida sifatli yondashuvga tayanildi. Asosiy e'tibor nutq madaniyati va nutqiy metodlariga qaratildi. Ushbu metodologik yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini to'g'ri shakllantirishga katta imkoniyat va chuqur nazariy ko'nikmalar beradi. Aynan shu davrda bola tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, fikrni izchil bayon etish, lug'at boyligini kengaytirish va o'qish-yozish ko'nikmalarini egallaydi.

ASOSIY MANBANING TANLANISHI. Tadqiqotning markazida bolalarning nutqini o'qitishga yordam beruvchi metodlar turadi va ular alohida e'tibor bilan o'rganiladi. Ushbu maqolada so'z boyligi, o'quvchilarning yosh xususiyati, interfaol metodlar va amaliy mashg'ulotlar kabi mavzularning mazmuni aniqlashtiriladi.

NUTQNI O'STIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

1. Interfaol usullar. Interfaol metodlar o'quvchini faol ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb etadi. Eng samarali usullar:

“Aqliy hujum” – o'quvchilar erkin fikr bildiradi, mantiqiy mulohaza qiladi.

“Klaster” – mavzu bo'yicha asosiy g'oyalarni guruhlash metodi.

“Insert” – matn bilan ishlashda belgilash texnikasi.

“Savol-javob zanjiri” – bir o'quvchi savol beradi, boshqasi javob beradi.

“Juftlikda ishlash” – muloqotni kuchaytirish uchun juft topshiriqlar beruvchi metod.

Ushbu metodlar o'quvchilarda og'zaki nutqning faolligi, mustaqil fikrlash va muloqot qobiliyatini oshiradi. Masalan, “Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.

2. O'yinli metodlar

Boshlang'ich ta'limda o'yin – asosiy didaktik vositalardan biri. Nutqni o'stirishda quyidagi o'yinlar samaralidir:

“Kim tez?” – rasm asosida tezkor hikoya tuzish;

“Topishmoqni top” – til boyligini oshiruvchi o'yin;

“Davom ettir” – gapni, matnni davom ettirish;

Rol o'yinlari – real hayotiy vaziyatlarni jonlantirish orqali nutqni faollashtirish.

3. Axborot texnologiyalari asosidagi usullar

-Multimedia darslari orqali audio, video matnlardan foydalanish;

-Rasm, animatsiya va interaktiv taqdimotlar asosida voqeani so'zlab berish;

-Elektron lug'atlar yordamida so'z boyligini kengaytirish.

Axborot texnologiyalaridan dars davomida samarali qo'llay olish o'qituvchining pedagogik mahoratidan darak beradi. Shu o'rinda AT ta'lim jarayonini soddaroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi.

4. Matn asosida nutqni rivojlantirish usullari

-Matnni qayta hikoyalash;

-Reja tuzish;

-Matndan xulosa chiqarish;

-Matnga ijodiy qo'shimcha kiritish;

-Matn asosida bahs-munozara o'tkazish.

Bu usullar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, ketma-ket bayon qilish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Ijodiy topshiriqlar orqali nutqni o'stirish

Nutqni rivojlantirishda ijodiy yondashuv katta ahamiyatga ega:

-Hikoya, ertak to'qish;

-Dialog tuzish;

-Rasm asosida obrazli tasvirlash;

-She'r yod olish va izohlash;

-Kichik sahna ko'rinishlari yaratish.

Bu mashqlar o'quvchining tasavvurini, til boyligini va ijodiy fikrlashini kengaytiradi.

Bolaning hayot dunyosini shakllantiradi, teran fikrlay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

6.An'anaviy ta'lim metodlari

PEDAGOGIK-QIYOSIY YONDASHUV. Mazkur mavzuda ilgari surilgan g'oyalar zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan solishtirildi. Boshlang'ich sinflarda nutqni rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

1.Kommunikativ yondashuvlar-o'quvchining asosiy e'tibori real muloqotga qaratiladi.

2.Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar-o'quvchi mustaqil fikrlash va ijobiy topshiriqlarni bajarishga jalb etiladi.

3.Integrativ yondashuv-ona tili mashg'ulotlari boshqa fanlar, hayotiy tajriba va o'yin faoliyati bilan bog'lanadi.

4.Bosqichma-bosqich rivojlantirish-nutqni o'stirish osondan qiyinga qarab ketma-ket tashkil etiladi.

5.Axborot texnologiyalaridan foydalanish – nutqiy jarayonni multimedia vositalari yordamida boyitish.

NATIJARLAR

Tadqiqot davomida tanlangan mavzu zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida tashkil qilinib, quyidagi aniq natijalarga erishildi:

1.Metodlarning aqliy faoliyatga ta'siri.

Nutq o'stirishda foydalanilgan zamonaviy usullar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi, fikrni izchil, aniq va to'g'ri ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi.

2. Nutqni rivojlantirishga doir qarashlar zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan qiyoslandi.

Nutq rivojlantirishga doir yondashuvlar Loginova, Lyaxovskaya, Gerbova, Strunina kabi olimlar nazariyalari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

3. Nutqni shakllantirish bo'yicha pozitsiya baholandi.

Bolalarning nutqini o'stirishda foydalanilgan qarashlar o'z zamonasi va ayni paytda ham ilg'or yondashuvlardan bo'lgani aniqlandi.

4.Nutq o'stiruvchi metodlarning bugungi kundagi o'rnini shakllantirilib, mohiyati asoslandi.

Nutq o'stiruvchi metodlar hozirda barcha (o'zbek va jahon) oilalar va ta'lim tizimi uchun ahamiyatli ekani,ayniqsa shaxs shakllanishi va ilmiy yetuklik masalalarida zarur tushunchalar ekanligi isbotlandi.

MUHOKAMA. Nutq o'stirishga oid ilgari surilgan g'oyalar bolalarning nutqini rivojlantirishga yordam beradi.Ahamiyatli jihati shundaki, nutq o'stiruvchi metodlar bolalarning rivojlanish bosqichiga qarab tuzilganligidadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida nutqini o'stirish jarayoni ko'p omillarga tayanadi: pedagogning mahorati, qo'llanilayotgan metodlar, o'quvchining psixologik xususiyatlari, darsning tashkil etilish shakli hamda zamonaviy ta'lim vositalarining qo'llanilishi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yodlatish va qayta hikoyalash usullari o'quvchilarning faolligini ta'minlamaydi, aksincha ular faqat eslab qolishga yo'naltirilgan bo'ladi. Zamonaviy yondashuvlar esa o'quvchini asosiy subyekt sifatida jarayonga jalb etadi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va o'z fikrini erkin bayon qilishga imkon yaratadi.

XULOSA. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari o'quvchilarning nutqini o'stirishning asosiy maydonidir. Interfaol metodlar, multimediya vositalari, o'yin texnologiyalari va kommunikativ yondashuv nutqni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy dars talabasi-faol, fikrlovchi, mustaqil, erkin so'zlasha oladigan shaxsdir. Shunday o'quvchini shakllantirish esa o'qituvchining metodik mahorati va darsni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq.

O'tkazilgan tahlil va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida nutqini o'stirish zamonaviy metodik yondashuvlar yordamida ancha samarali bo'ladi. Interfaol usullar o'quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi, o'yinlar nutqiy jarayonni tabiiy ravishda rag'batlantiradi, axborot texnologiyalari esa o'quvchini multimedia muhitida faol fikr yuritish va muloqotga kirishishga undaydi.

Zamonaviy usullar orqali o'quvchilarning og'zaki nutqi ravonlashadi, matn bilan ishlash ko'nikmalari mustahkamlanadi, til boyligi kengayadi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi, muloqot madaniyati shakllanadi, o'quvchi kommunikativ kompetensiyasi kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q.O, Ahmedova D.A. - "Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi" – "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2022.
2. Avlayev O.U, Jo'rayeva S.N, Mirzayeva S.R. - "Ta'lim metodlari" - "Navro'z " nashriyoti, Toshkent 2017.
3. Babayeva D.R. – "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" – "Barkamol avlod" nashriyoti, Toshkent 2018.
4. Ismoilova N.S. - "Boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish" – "Noshir" nashriyoti, Toshkent 2023.
5. Karimov I.A. – " Milliy istiqlol g'oyasi va manaviyat asoslari" – "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent 2015.
6. Nizomova Sh.S. – "Bolalarni nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyasi" – "Fan va ta'lim" nashriyoti, Buxoro 2022.
7. Shomahmudov R.A. – "To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutqni o'stirish" – "Ilm-Ziyo" nashriyoti, Toshkent 2013.
8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi". – Toshkent, 2022.